O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	
Yashil texnologiyalar asosida sanoatni modernizatsiya qilish	990
Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich	
Ta'lim va ilm-fan rivoji – taraqqiyot garovi	995
Jamalova Gulnora Gulomovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida turizm sektorida barqaror bandlikni ta'minlash masalalari.....	1000
To'rabekov Sohijon Sherboy o'g'li	
Yashil energitikasi integratsiya qilish va energiya samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli (aqlli tarmoqlar-smart grids)	1007
Karimova Salima Elamonovna	
Yashil iqtisodiyot sharoitida soliqlarni raqamlashtirishni takomillashtirish	1012
Jo'rayev Botir Abdiyevich	
Yashil iqtisodiyotda tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish samaradorligi (TEM ko'rsatkichlar izohi)	1018
Sharifova Nargiza Djurayevna	
Экономическое образование молодёжи основа будущего страны.....	1023
Айматова Фарида, Айтиниязова Наргиза	
Biznes turizmining bugungi kundagi rivojlanish tendensiyasi.....	1028
Yangiyeva Sabrina Ixtiyorovna, Daniyarova Feruza Bahriddinovna	
Особенности кредитования сельскохозяйственных организаций и этапы его развития.....	1032
Ж.Я.Нуриллаев	
Xorijiy tajriba asosida O'zbekiston yashil iqtisodiyotini takomillashtirish yo'llari.....	1039
Xikmatova Husnora Fatxulla qizi	
Yashil iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatning roli	1045
Umarov Muzaffar Yusupbayevich, Otamurodov Rasulbek Batirovich, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Atadjanov Kadambay Sapayevich	
Mintaqada raqamli transformatsiya rivojlanishida moliyaviy texnologiyalarning ahamiyati.....	1052
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Tijorat banklaridan olingan kreditni qaytarishda foiz stavkalari ta'sirining tahlili.....	1058
Xanmuratov Roushenbek Xalmuxammetovich, Vaxabov.A.V	
Tabiiy va sun'iy tolalarning ekologik ta'siri va yashil ishlab chiqarish texnologiyalariga o'tish bosqichlari.....	1066
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B taqsimotida chakana savdo tarmoqlari bilan marketing asosidagi strategik hamkorlik	1071
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мхлисахон Ибрахимжон кизи	
Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	
Ichki audit samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi.....	1111
I.G'.Isroilov	
Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi.....	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi.....	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash.....	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish.....	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish.....	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligasiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligasiyalar bilan bog'liq risklar.....	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari.....	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Irismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA TADBIRKORLIK: IQTISODIY VA IJTIMOY ISTIQBOLLAR



Xaydarova Shoxista Davranovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

E-mail: shokhistakhaydarova53gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xizmatlar sohasidagi tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari, ularning milliy iqtisodiyotdagi ulushi, xususan, bandlikdagi ahamiyati ko'rib o'tilgan. Statistik tahlillar asosida xizmat ko'rsatish sohasining kelajakda yanada rivojlanishi uchun ustuvor yo'nalishlarga birlamchi e'tibor qaratilishi yuzasidan takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, xizmatlar sohasi, bandlik, milliy iqtisodiyot, xududiy iqtisodiyot, iqtisodiyot sohalari.

Abstract: The article examines the features of entrepreneurship in the service sector, their share in the national economy, in particular, their importance in the field of employment. Based on the statistical analysis, proposals are made on priority areas for further development of the service sector.

Key words: Entrepreneurship, service sector, employment, national economy, regional economy, economic sectors.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности предпринимательства в сфере услуг, их доля в народном хозяйстве, в частности, значение в сфере занятости. На основе статистического анализа даны предложения по приоритетным направлениям дальнейшего развития сферы услуг.

Ключевые слова: Предпринимательство, сфера услуг, занятость, народное хозяйство, региональная экономика, отрасли экономики.

KIRISH

Xalqaro iqtisodiy integrallashuv jarayonida xizmat ko'rsatish sohasi mamlakatlar iqtisodiyotlarining barqaror o'sishida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Aynan xizmat ko'rsatish sohasini taraqqiy etishida yetakchi rol o'ynovchi xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi nafaqat milliy iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, balki ijtimoiy sohalar ravnaqini, jumladan, aholi bandligi, ishsizlikning qisqarishi va shu bilan birgalikda xizmat ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatlariga innovatsiyalar joriy etilishini tezlashtirish orqali ular samaradorligi hamda natijadorligini oshiradi. O'zbekiston ham bu borada muhim islohotlarni amalga oshirib kelayotganligi, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-132-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasini barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shmcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-sonli qarorlari hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik faoliyatlariga va ularning xizmatlar sohasini rivojlantirishlariga berilayotgan etibor va qo'llab-quvvatlanishlarini ko'rsatmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Barqaror iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishida, jumladan, xizmatlar sohasi rivojlanishi, ushbu sohaning ijtimoiy ahamiyati oshishiga xizmat qiluvchi tadbirkorlik faoliyati rivojlantirishi yuzasidan tadqiqotlar olib brogan xorijiy iqtisodchilari P. Samuelson, V. Nordxaus [3], Odretch, B. Devid, M.K. Keylbax, E.E. Lemann [4], T.D. Burmenko, V.Yu. Baganov, O.N. Bayeva, N.N. Danilenko, L.A. Xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik:

Iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar

Kazarina, T.A. Kondraskaya, N.V. Rubsova [5], G.L. Bagiyev, L.S. Golovanov [6], T. Murtuzaliyeva [7], mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan M.A. Yusupov [8], M.R. Boltaboyev, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxodjayeva, B.K. G'oyibnazarov, A.N. Samadov, Sh. Otajonov [9], M.H. Ochilova, T.R. Xolmirzaev [10], M.C. Xusanov [11] kabilar va boshqa olimlar ushbu soha rivojiga katta hissa qo'shganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyati ahamiyatligi, tadbirkorlik faoliyati orqali erishiladigan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar yetakchi horijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarini o'rganish va olingan ma'lumotlarini taqqoslash, guruhlash, qiyosiy, iqtisodiy, mantiqiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR


Jahon iqtisodiy rivojlanish bosqichlari, jumladan, dunyo iqtisodiyotida salmoqli o'rin egallagan va uning asosini tashkil etuvchi taraqqiy etgan davlatlar bosib o'tgan rivojlanish bosqichlari shuni ko'rsatadiki, uzoq davrlarni o'z ichiga olgan mamlakatlar iqtisodiyotining tayanchi hisoblangan soha birinchi taraqqiyot bosqichi hisoblanuvchi qishloq xo'jaligi ravnaqi bosqichi, keyingi yuqori rivojlanishni ta'minlab bergan bosqich sanoatlashish davri va hozirgi kundagi bozor iqtisodiyotining eng so'ngi, mamlakat YalMdagi ulushi jihatdan iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasini ko'rsatuvchi ko'rsatkich xizmatlar sohasi tashkil etayotganligini qayd etib o'tishimiz maqsadga muvofiq. Haqiqatdan ham rivojlangan davlatlar YalM tarkibining asosiy qismini hozirgi kunda aynan xizmatlar sohasi tashkil etmoqda. Shu bilan birgalikda, ta'kidlab o'tish joizki, xizmatlar sohasining rivojlanishiga so'ngi fan-texnika yutuqlarining amaliyotga joriy etilishi natijasida, mehnat unumdorligining qishloq xo'jaligi va sanoatdagi samaradorligi oshishi fonida mehnat sarflarining ushbu sohalarida qisqarishi yuzaga kelgani va bo'sh qolgan mehnat resurslarining aynan xizmatlar sohasida o'z bandliklarini ta'minlashlari, bu esa ushbu sohaning keskin rivojlanishiga hamda YalMdagi salmog'ining yil sayin oshib borayotganligiga asos yaratayotganligini jahon va milliy statistik ma'lumotlar ko'rsatib bermoqda.

Jahon iqtisodiyoti raqamlashtirish jarayonini boshdan o'tkazayotgan axborot texnologiyalari asrida xizmat ko'rsatish sohasi nafaqat milliy iqtisodiyot balki mahalliy (hududiy) iqtisodiyotning ham muhim drayveri bo'lib, hudud yalpi ichki mahsulotni shakllantirish va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining barqaror rivojlanishini ta'minlashda katta hissa qo'shib kelmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohasi haqida to'xtalar ekanmiz, ushbu sohaning iqtisodiy mohiyatini haqida qisqacha to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.


Xizmat – bu yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan, ikkinchi tomonga ko'rsatiladigan faoliyat turi bo'lib, uni ushlab, ko'rib bo'lmaydi hamda u to'g'rida-to'g'ri mijozning shaxsiy yoki xususiy mulkiga aylanmaydi. Xizmat ko'rsatilishi natijasida mahsulotning fizik holati o'zgarishi yoki o'zgarmasligi ham mumkin. Xizmat xodimlar va asbob-uskuna yordamida taqdim etilishi mumkin; shu bilan birgalikda iste'molschilar ishtirokida va ishtirokisiz amalga oshirilishi ham mumkin; u jismoniy yoki yuridik ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin; tijorat va notijorat xarakterga ega bo'lishi hamda jismoniy va yuridik shaxslar (tashkilotlar) tomonidan ko'rsatilishi mumkinligi bilan xarakterlanadi.

Xizmatlar sohasi bugungi kunda iqtisodiyotning murakkab, serqirrali sohalaridan biri bo'lib, milliy va jahon iqtisodiyotining eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarkibiy qismlaridan hisoblanadi va o'z ichiga eng ko'p tarqalgan shakllardan biri tijorat sohasidan tortib, bank-moliya, sug'urta, turizm, auditorlik-konsalting xizmatlari, transport, ta'lim, aloqa va axborotlashtirish, sog'liqni saqlash, madaniyat, san'at, sport, texnik xizmatlar, maishiy va kommunal xizmatlar, mehmonxonalar, dam olish uylari, televideniya, radio, kino teatrlar, muzeylar, hayvonot bog'lari kabi keng faoliyatlarni o'z ichiga oladi (1-rasm).



1-rasm. Ko'rsatilgan asosiy xizmatlar turlari.

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda O'zbekiston Respublikasi YaIM tarkibida salmoqli xissa qo'shadigan xizmatlar turlari keltirilgan bo'lib, ushbu xizmat ko'rsatish sohalari 2022-yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi YaIMdagi ulushi 41,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakunlariga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohalari O'zbekiston Respublikasi YaIMdagi ulushi 43,4 % ni tashkil etgan va 2024-yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra xizmatlar sohasining O'zbekiston Respublikasi YaIMdagi ulushi 47,9 % ni tashkil etganligi, ya'ni so'ngi yillarda oldingi yillarga nisbatan oshib borganligi milliy iqtisodiyotimizda ushbu sohaning ulushi yildan yilga oshib borayotganligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birgalikda ko'rsatilayotgan xizmatlarning hududlar bo'yicha taqsimotini tahlil qiladigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida olingan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023-yil yakunlariga ko'ra, respublika miqyosida ko'rsatilgan jami xizmatlarning deyarli yarmi (46 foizi) mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarni Toshkent viloyati va Samarqand viloyatlari egallab turibdi. Ushbu ko'rsatkich ham mazkur hududlarning milliy iqtisodiyotimiz (YaIM) shakllanishidagi ulushini ko'rsatib bermoqda. Bu esa yuqorida keltirib o'tganimiz hududlardagi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot darajasini va undagi xizmatlar sohasining salmog'ini yuqori ekanligini ko'rsatib turibdi. Shu bilan birgalikda xizmatlar sohasida eng kam ulushga ega bo'lgan viloyatlar Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining mamlakatimizda umumiy ko'rsarilgan xizmatlardagi ulushi mos ravishda 1,9% va 3,0% larni tashkil etishi, ushbu viloyatlar iqtisodiy salohiyati va ularning davlatimiz milliy iqtisodiyoti (YaIM) dagi xissasi ham shu kabi ekanligi yuqorida qayd etganlarimizni isboti bo'lib xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (viloyatlar kesimida 2023-yil).



Rivojlangan mamlakatlarning bosib o'tgan tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, ishlab chiqarishni murakkablashuvi va bozorni sifat hamda texnik jihatdan murakkab bo'lgan tovarlar bilan to'ldirilishi natijasida xizmatlarga bo'lgan talab ham yil sayin oshib bormoqda. Bizning mamlakatimizda ham xizmatlarning turli yangi shakllari paydo bo'lishi natijasida xizmatlar sohasi, boshqa sohalarga nisbatan tez sur'atlar bilan rivojlanishda davom etmoqda. Shuning uchun, zamonaviy, innovatsion texnologiyalar davrni ifodalovchi hozirgi asr o'zgarishlari sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining nafaqat iqtisodiyotdagi balki ijtimoiy sohalardagi ahamiyatini ham e'tirof erish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).

1-jadval. Bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi).

1-jadval. Bandlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (ming kishi) ¹						
Sohalar/yillar	2010	2015	2020	2021	2022	2023
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3118,1	3601,7	3499,2	3414,7	3438,7	3344
Qurilish	1033,7	1222,2	1305,6	1350,8	1314,3	1502
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	121,4	130,3	92,5	94	57,5	58,9
Ishlab chiqarish sanoati	1339,1	1476,2	1597,7	1642,4	1630,1	1662
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	135,8	131	131,6	138	135,7	139,2
Boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish	64	71,4	98,4	100,2	108,1	108,7
Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	584,6	598,1	635,9	637,3	636,8	637,9
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	64,4	65	67	70,2	71,7	71,9
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	1144,1	1368	1358,2	1358,2	1534,1	1560
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	86,9	99,1	72,3	76,2	73,5	68,6
Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	58,3	63,1	47	50,6	49,5	46,5
Axborot va aloqa	53,1	61,7	58,7	70,5	77,3	87,8
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	69,9	69,8	72,5	70,4	69,6	73,4
Tashish va saqlash	509,9	614,7	610,5	654,2	633,1	640,4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	249,2	297,3	302,8	341,1	348,8	367,2
Ulgurji va chakana savdo; motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	1235,6	1413,8	1405,4	1535,6	1525,2	1586
Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	62,1	68,1	53,4	63,2	62,2	64,9
Ta'lim	1102	1105,3	1158,2	1220,5	1268,7	1300
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	596,2	601,5	669,5	650,8	671,3	694,8

Yuqorida keltirilgan 1-jadvalda 2010-yildan 2023-yilgacha aholini umumiy bandligining sohalari bo'yicha taqsimlanishi milliy statistik ma'lumotlarimiz orqali ko'rsatib o'tilgan bo'lib, bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda jami bandlikning asosiy qismi aynan xizmatlar sohasiga to'g'ri kelmoqda. Jumladan, 2023-yil yakunlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarga asosan, ulgurji va chakana savdo hamda ta'lim xizmatlari sohalari umumiy aholi bandligidagi xizmatlar sohasi tarkibida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etmoqda, mos ravishda 1 586 000 nafar bandlik va 1 300 000 nafar bandlikni ushbu xizmat sohalari yaratib bermoqda.

Bu kabi tahlillar ko'rsatib turibdiki, O'zbekistonda ham milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va ahamiyati yildan yilga oshib, kengayib bormoqda. Shu sababli ham hukumatimiz tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirish, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga qulayliklar yaratish borasida bir qator ishlar amalga oshirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, 2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida amalga oshirishga oid davlat dasturi 168-bandida "Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohalari rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish" va 172-bandida "Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik subyektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etilishini ta'minlash" kabi

1 O'zbekiston Respublikasi Milliy milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



masalalari alohida vazifalar sifatida belgilanganligi xukumat tomonidan olib borilayotgan amaliy ishlarga yorqin misollardan hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytish mumkinki, bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq mavjud xizmat ko'rsatish turlari bilan cheklanib qolmay bozorda o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, milliy va jahon iqtisodiyotining boshqa sohalari bilan integratsiyalashgan va o'ziga xos aloqalar orqali bog'langan bo'lib ushbu aloqalar yangi xizmat sohaslarining yuzaga kelishi bilan doimiy mustahkamlanib, rivojlanib boraveradi.

Shu sababli ham, ushbu soha rivojlanishidan barcha tomonlar manfaatdorligini inobatga olga holda, bizning nazarimizda xizmatlar sohasini rivojlantirishda, ushbu sohalarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga qo'llab-quvvatlashda ustuvor yo'nalishlar, jumladan IT, ta'lim, turizm, aloqa, transport, barcha hududlarini sifatli internet bilan ta'minlanganlik darajasini yaxshilab borish, yo'l bo'yi xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini jahon standartlariga moslashtirish kabilarga birinchi o'rinda e'tibor qaratilishi xizmatlar sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlanishida hamda bandlikni ta'minlashda xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to'rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 30.08.2024 yildagi PF-132-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7089547>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xizmatlar sohasini barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shmcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 27.02.2025 yildagi PQ-78-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-7408455>
3. Paul A. Samuelson, William D. Nordhaus Economics, 19 e. 2015 y. 1360 p.
4. Одретч, Дэвид Б., Макс К. Кейлбах и Эрик Э. Леманн Предпринимательство и экономический рост (Нью-Йорк, 2006; онлайн-издание, Oxford Academic, 1 января 2007 г.)
5. Сфера услуг: экономика, менеджмент, маркетинг. Практикум: учебное
6. пособие / коллектив авторов. под ред. Т.Д. Бурменко. — М.: КноРус, 2015.- 422 с.
7. Г.Л. Багиев, Л.С. Голованов Организация бизнеса в системе услуг. — СПб.: Университет экономики и финансов, 2015. — 408 с.
8. Т.Муртузалиева Маркетинг услуг: задачи, кейсы, тесты Учебно-практическое пособие. Изд. «Дашков и К», М.: 2023. 117 с.
9. M.A.Yusupov "Xizmatlar marketingi" Darslik. -T.: "Iqtisodiyot", 2021.- 356 bet
10. M.R. Boltaboyev, M.S. Qosimova, Sh.J. Ergashxodjayeva, B.K. G'oyibnazarov, A.N. Samadov, Sh. Otajonov. Kichik bizves va tadbirkorlik: O'quv qo'llanma. -T.: Iqtisodiyot, 2012. -289 bet.
11. M.H.Ochilova, T.R. Xolmirzaev Hududlarda xizmatlar sohasi jadal rivojlanish// Экономика и социум. 2024. №2-1 (117).
12. M.C.Xusanov Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, 2024. 7-son, 46-53 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>